



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 26 mart, № 61 (8684)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



MAQSAD — INSON SALOHİYATIGA KAPITAL YO'NALTIRISH, UNI HARAKATGA UNDASH, DUNYOQARASHNI O'ZGARTIRISHDAN IBORAT

Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-mart kuni iqtisodiyotning turli tarmoqlarida amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishish, yirik energetika obyektlari qurilishini boshlab berish, mahallalar ahli bilan muloqot qilish maqsadida Namangan viloyatiga tashrif buyurdi.



Ta'kidlash joiz, sanoatni rivojlantirish keyingi yillarda Namangan viloyatining drayveri, ya'ni "o'sish nuqtasi"ga aylandi. Davlatimiz rahbarining viloyatga tashrifining ilk kuni manzillarida aynan sanoat rivojiga ustuvor ahamiyat qaratilgani ham bejizga emas.

Davlatimiz rahbari dastlab Yangi Namangan tumanidagi "Gavhar grup" korxonasini borib ko'rdi. U yiliga 1 ming 200 kilogramm zargarlik buyumlarini sanoat usulida ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Yurtimiz zargarligi qadimdan mashhur. Jumladan, Namanganda ham qo'ligul hunarmand sulolalar bo'lgan. Lekin yetarli sharoit bo'lmagani, xomashyo sotib olishdagi qiyinchiliklar sababli ko'p zargarlar faoliyatini to'xtatgan edi. Bori ham buyumlarni qo'l mehnatida tayyorlardi.

Prezidentimizning 2019-yil 18-maydagi "O'zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni soha vakillariga keng imkoniyatlar ochdi. Xususan, zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilarga kon-metallurgiya kombinatlari va aholidan qimmatbaho metall parchalari, qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan buyumlarni sotib olish huquqi berildi. Xorijdan texnologiya va mutaxassislar olib kelish qo'llab-quvvatlandi.

Bunday e'tibor va imkoniyatlar zargar tadbirkorlarga ishonch berdi. "Gavhar grup" mas'uliyati cheklangan jamiyati ham shu tariqa vujudga keldi. Turkiya, Italiya, AQSH va Germaniyadan zamonaviy uskunalar keltirildi, 2022-yilda ishga tushirildi.

Bugungi kunda korxonada 10 ming xil dizayndagi zargarlik buyumlarini ishlab

chiqarish o'zlashtirilgan. Chet ellar bilan hamkorlikda qo'l soatlarining tilla korpusini tayyorlash yo'lga qo'yilgan. 2023-yilda 270 kilogramm mahsulot ishlab chiqarilgan.

Shuningdek, bu yerda 3D modellashtrish orqali buyurtma asosida istalgan ko'rinishdagi buyumlarni ishlab chiqarish mumkin.

Oltinni Tovar-xomashyo birjasidan kechiktirib to'lash sharti asosida sotib olish imkoniyati aylanma mablag' va ishlab chiqarish uzviyligida muhim omil bo'lmoqda.

Yana bir muhim tomoni, korxonada mahalliy zargarlar bilan kooperatsiya yo'lga qo'yilgan. Natijada yashirin ishlaganlar "soya"dan chiqdi, ish o'rinlari ko'paydi. Korxonada 100 dan ortiq kishilarning bandligi ta'minlangan. Shu yerning o'zida yoshlarga hunar ham o'rgatildi.

Davlatimiz rahbari korxonada ishlayotgan zargarlar bilan suhbatlashdi.

— Mamlakatimizda yiliga 100 tonna oltin qazib olaymiz. U yilga zargar tadbirkorlarga bo'lib to'lash sharti bilan sotishga ruxsat berilgan. Ochig'i, bunday imkoniyatlar hech qaysi davlatda yo'q. Lekin yurtimizda oltinning atigi 6 foizi qayta ishlanyapti. Oltin qazib olinmaydigan mamlakatlar bizdan ko'p eksport qilyapti. Bu sohada biroz kechikdik. Shuning uchun ishlab chiqarishga qo'shimcha sharoitlar yarataymiz. Bu hali boshlanishi. Sohani hali yana rivojlantiramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Turkiyalik ishbilarmonlar bilan tajriba almashish, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish masalalari bo'yicha muloqot bo'ldi.

Davlatimiz rahbari shu yerda

"Mexmash" mas'uliyati cheklangan jamiyati mahsulotlarini ham ko'zdan kechirdi.

Bu korxona yiliga 20 ming tonna burama mix va 18 ming tonna rulonli qog'oz ishlab chiqarish, 6 million dollarlik eksport quvvatiga ega. 700 kishi ish bilan ta'minlangan.

Bozor talabidan kelib chiqib, avtomobil sanoatida qo'llanadigan mahkamlash mahsulotlari hajmini va eksportini oshirish, ish o'rinlarini ko'paytirish rejalarini yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Namangan viloyatining Uychi tumanidagi "Qumtepa" yoshlar kichik sanoat zonasida bo'ldi.

Mahallalarda shakllangan kasb-hunarlarini rivojlantirib, drayverga aylantirish, shu orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Uychi tumanidagi Qumtepa, Dehqon, Balandariq va Jiydakapa mahallalarida temirchilik shunday yo'nalish.

2021-yilda bu yerda temirchilikka ixtisoslashtirilgan sanoat zonasi tashkil etilib, xonadonlardagi usta-hunarmandlarga zarur sharoitlar yaratib berildi. Uch gektar maydonni egallagan majmua yo'l, energiya, ichimlik va oqova suv kabi barcha infratuzilma bilan ta'minlandi. Shu bilan birga, energiya tejamkor usullar joriy etilib, quyosh panellaridan samarali foydalanilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu yerda ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi, temirchi hunarmandlar bilan suhbatlashdi.

Sanoat zonasida birinchi bosqichda 52 ta loyiha amalga oshirilib, 1 ming 500

dan ortiq ish o'rinlari yaratilgan. Ustalar xomashyoni "Aziya metall prof" korxonasi va Toshkent metallurgiya zavodidan olib, temirdan darvoza, eshik, so'ri, panjara va boshqa metall buyumlar ishlab chiqarmoqda.

Joylarda bu mahsulotlarga talab yuqori. Shu bois tadbirkorlar barcha viloyatlarda o'z savdo uylari va ishlab chiqarish filiallarini ochgan. Bundan tashqari, qo'shni davlatlarga 1,2 million dollarlik mahsulot eksport qilingan.

Ikkinchi bosqichda yana 45 ta loyihani amalga oshirish, 1 ming 330 ta qo'shimcha ish o'rni yaratish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz mutasaddilarga sanoat zonasi maydonidan samarali foydalanish, yoshlarni va ishsiz fuqarolarni hunarga jalb etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shu yerda mahallabay ishlash orqali ishsizlikni kamaytirish bo'yicha vazifalar muhokama qilindi.

Sayxunobod tajribasi asosida 14 ta tumandagi 788 ta mahallaga iqtisodiy idoralarning rahbar va mas'ul xodimlari birlashtirildi. Ular "mahalla yetilligi" bilan birga 557 ming xonadondagi imkoniyatlarni o'rigan.

— Men Sayxunobodda "bu yil iqtisodiyotimizda hayotiy uyg'unlash va yuksalish yili bo'ladi" dedim. Maqsad — inson salohiyatiga kapital yo'naltirish, uni harakatga undash, dunyoqarashni o'zgartirish. Uychi tumani ham iqtisodiyoti og'ir hudud. Ushbu tizim asosida ishsizlarga tomorqadan daromad topish, o'z ishini ochish, qobiliyatini yuzaga chiqarishga ko'maklashish kerak, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari Qumtepa mahallasi markazida ham bo'lib, aholi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Mazkur mahallada 5 ming 200 nafarga yaqin aholi yashaydi. Xonadonlar metallni qayta ishlash, dehqonchilik va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan.

Bu yil mahalla qiyofasi yaxшилandi. Mahalla idorasi uchun yangi bino qurildi. Barcha xonadonlar ichimlik suvi ta'minotiga ulandi. Ichki yo'llar, elektr tarmoqlari ta'mirlandi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida yo'l bo'ylariga mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.

Mahallada tikuvchilik sexi, go'zallik saloni, sport maydonchalari, tibbiyot punkti, kutubxona, oziq-ovqat do'konlari hamda dorixonalar aholiga xizmat ko'rsatmoqda.

Yangi mahalla binosida Tadbirkorlarga ko'maklashish markazi ham tashkil etildi. Bu yerda aholi va tadbirkorlar ayrim davlat xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Prezident buni ma'qullab, davlat idoralari bilan bog'liq masalalarni iloji boricha mahallalarning o'zida hal etish zarurligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari Namangan tumanidagi "Nam Motor Servis" korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

To'rt gektardan ortiq hududda joylashgan ushbu investitsiyaviy loyihaning dastlabki bosqichi 2021-yilda ishga tushirilgan. Xitoydan zamonaviy texnologiyalar keltirib o'rnatildi. Natijada yiliga o'n ming dona elektr dvigatel, ikki ming dona suv nasosi ishlab chiqarish quvvati yaratildi. Yuz kishi ish bilan

ta'minlandi.

Korxona mahsulotlari energiya tejamkorlik klassining "IE2" darajasida bo'lib, xalqaro standartlarga javob beradi. Ular mamlakatimizdagi kon-metallurgiya kombinatlari, suv xo'jaligi hamda Markaziy Osiyo davlatlariga yetkazib berilmoqda.

Yana bir muhim jihati, elektr dvigatellar ishlab chiqarish 60, suv nasoslari 100 foiz mahalliyashtirilgan.

Prezidentimizga korxonaning istiqbolidagi rejalar, navbatdagi bosqichlar haqida ma'lumot berildi.

Loyihaning ikkinchi bosqichi may oyida, yakuniy bosqich esa yil oxirigacha ishga tushadi. Natijada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi ortib, hamkorlik geografiyasi kengayadi. Yana 160 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Xususan, bu yerda 2,2 ming tonna emallangan sim, 6 ming dona elektr dvigatel, 4 ming dona katta hajmdagi suv nasosi ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Bu qo'shimcha 500 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari, degani.

Boshqa tarmoqlar va korxonalar bilan kooperatsiyani kengaytirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Mamlakatimizning barcha hududlarida investitsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda, yana sarmoyalar kirib kelmokda. Bunga asos — Yangi O'zbekistonga bo'lgan ishonch.

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Ma'buot xizmati suratlari.

Muloqot

DELEGATSIYAMIZ PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING 148-ASSAMBLEYASIDA ISHTIROK ETMOQDA

Avval xabar berilganidek, shu yil 23 — 27-mart kunlari Shveysariyaning Jeneva shahrida Parlamentlararo Ittifoqning (PI) 148-assambleyasi bo'lib o'tmoqda. Bir yilda ikki marta o'tkaziladigan assambleyada dunyoning turli mamlakatlaridan yuzlab parlament vakillari ishtirok etmoqda.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, Parlamentlararo Ittifoq milliy parlament-larning global tashkiloti bo'lib, u 130 yildan ko'proq vaqt oldin barcha mamlakatlar o'rtasida hamkorlik va muloqotni rag'batlantiradigan dunyodagi birinchi ko'p tomonlama siyosiy tashkilot sifatida tuzilgan. Bugungi kunda 180 ta milliy parlament va 15 ta mintaqaviy parlament organi Parlamentlararo Ittifoqqa a'zo. Tuzilma demokratiyani targ'ib qiladi va parlamentlarni kuchliroq, yoshroq, "yashilroq", gender jihatdan muvozanatli va innovatsion institutlarga aylantirishga yordam beradi.

Assambleya "Parlament diplomatiyasi: tinchlik va o'zaro hamjihatlik uchun ko'prik yaratish" mavzuidagi umumiy munozaralar doirasida uyushtirildi. Asosiy e'tibor umumiy mavzuda delegatlarga muhokama uchun platforma yaratish va parlament faoliyatini kuchaytirish yuzasidan fikr almashishga qaratildi.

Assambleyada Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva nutq so'zlab, muhim taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Senat Raisi o'z nutqida tez o'zgarayotgan va oldindan aytish qiyin bo'lgan

xalq-aro vaziyat hamda davlatlararo munosabatlarda bir-birini tushunish tobora taqchil bo'lib borayotgan bir davrda parlamentlar roli har qachongidan muhim ahamiyatga ega bo'layotganini ta'kidlab o'tdi. Plining parlament diplomatiyasini mustahkamlashga qaratilgan konseptual tamoyillarini to'liq qo'llab-quvvatlagan holda alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan ustuvor yo'nalishlarga o'xtaladi.

Jumladan, parlament diplomatiyasi davlatlar o'rtasida ishonchni mustahkamlashning asosiy mexanizmi sifatida nizolarning oldini olishda muhim o'rin tutishi, parlamentlar aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari huquqlarini faol himoya qilishi kerakligi alohida qayd etildi.

Shuningdek, ishtirokchilar e'tibori parlament a'zolari o'rtasida ishonchli munosabatlarni o'rnatishga, umumiy muammo va vazifalarni hal etishga ko'maklashadigan mintaqaviy hamkorlik muhimligiga qaratildi.

Assambleya avtonom qurol tizimlari hamda sun'iy intellektning ijtimoiy va gumanitar ta'sirini bartaraf etish hamda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik: arzon "yashil" energiyadan foydalanishni rag'batlantirish va innovatsiyalar, mas'uliyat hamda adolatni ta'minlash bo'yicha rezolyutsiyalar qabul qilishi kutilmoqda.

Shuningdek, assambleyaning umumiy mavzusi bo'yicha yakuniy hujjat qabul qilinishi nazarda tutilgan.

"Xalq so'zi".

Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

KONSTRUKTIV FIKRLAR, ASOSLI TAKLIFLAR

Qonun loyihalarining har jihatdan pishiq, mukammal bo'lishi qizg'in munozara va tortishuvlarga bevosita bog'liq. Chunki aynan bahs-munozaralarda konstruktiv fikrlar bildiriladi, asosli takliflar ilgari suriladi. Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining kecha bo'lib o'tgan yig'ilishlarida quyilgan palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator qonun loyihalar deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilindi. Loyihalarining hayotiy zarurati, ahamiyatidan kelib chiqqan holda bir qator savollar o'rtaga tashlandi.

Ustuvor vazifalar ijrosida mas'ullik

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimiz raisligida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati sohalarida investitsiyalar jalb qilish hamda eksportni ko'paytirish masalalari muhokamasini bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiquvchi partiya va uning fraksiyasi oldida turgan masalalar muhokama qilindi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, aholining oziq-

ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida birgina o'tgan yili yurtimizda 23 million tonna meva-sabzavot yetishtirilib, oziq-ovqat sanoatida 86 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

Shuningdek, har yili qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini qo'llab-quvvatlashga 700 mlrd. so'm, ishlab chiqarishni ko'paytirishga 1 trln. so'm yo'naltirilmoqda. Lekin natija shunga yarasha emas. Bu borada g'alladan bo'shaydigan 1 mln. gektar maydon, aholining 508 ming gektar tomorqasi, odamlarga bo'lib berilgan 260 ming gektar yer imkoniyatidan to'liq foydalanilmayapti.

Munozaralar davomida deputatlar davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan muhim vazifalar ijrosini ta'minlash O'zLiDeP va uning deputatlik korpusi zimmasiga katta mas'uliyat yuklashini alohida qayd etdilar. Mazkur topshiriqlardan kelib chiqadigan partiya va uning parlamentdagi fraksiyasi oldida turgan vazifalar belgilab olindi.

Yig'ilishda, shuningdek, "Seysmik xavfsizlikni ta'minlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va xavfsizligini ta'minlash sohalarini rivojlantirish hamda soha tashkilotlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish bo'yicha keng ko'lami kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



IFTORLIK — SAVOBI ULKAN AMAL

Bismillahir Rohmanir Rohiyim.

Alloh taolaga beadam shukrki, bu yilgi Ramazon oyi yurtimizda fayz-u barakali, mehr-u oqibatlilik va toat-ibodatlar bilan oʻtmoqda. Mahalla-yu guzarlarda, xonadonlarda oʻzaro xayr-u saxovat ishlarini koʻpaytirish, ehtiyojmand insonlarga yordam qoʻlini choʻzish kabi savobi ulugʻ amallar uyushqoqlik bilan amalga oshirilmoqda. Shubhasiz, ulugʻ ayjom kunlarining bunday shukuhli oʻtishi, oilalardagi quvonch-u shodliklar Yaratgan Parvardigorning diyorimizga ato etgan tinchlik neʼmatidandir.

Muborak Ramazon oyida yurtimizda yetim-yesir, beva-bechora, bemorlar va ehtiyojmandlar holidan xabar olish, roʻzadorlarga iftorlik qilib berishdek savobli amallar necha asrlik ezgu anʼanalarimizdan. Bunday xayrli tashabbuslar kun sayin kengayib borayotgani mamlakatimizga fayz-baraka yogʻilib turganidan yana bir nishona.



sollallohu alayhi vasallam: “Alloh taolo bu savobni roʻzadorga bir qultum sut yoki bitta xurmo yoki boʻlmasa bir hoʻplam suv bilan iftorlik qilib bergan kishiga beradi. Kimki roʻzadorning qornini toʻygʻazsa, Alloh qiyomatda unga havzi kavсарidan bir qultum suv ichiradi, natijada u to jannatga kirgunicha chanqamaydi. Ramazon — avvali rahmat, oʻrtasi magʻfirat, oxiri doʻzaxdan ozod qilish oʻyidir. Kimki u oyda xodimlarning ogʻirini yengil qilsa, Alloh uning gunohlarini kechiradi hamda doʻzaxdan ozod qiladi”, dedilar» (Ibn Hibbon rivoyati).

Dinimizda iftorlik roʻzador uchun buyuk fazilatlar, xursandchilik va xayr-u baraka omiliga aylantirilgan. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda shunday deyiladi:

“Roʻzadorga ikki xursandlik bordir. Ular ila suyungay. Iftor qilganda suyungay va qachon Robbisiga yoʻliqqanda, roʻzasi ila suyungay”, degan (Imom Buxoriy).

Ulamolarimiz bu hadisni quyidagicha sharhlaydilar: “Darhaqiqat, kun boʻyi roʻza tutib, vaqti kelganda iftor qilgan inson oʻta xursand boʻladi. Alloh amr qilgan ibodatni ado etganidan, hadsiz-hisobsiz savoblarga ega boʻlganidan oxiratiga zamin tayyorlaganidan quvonadi. Ochlik, tashnalikdan soʻng halol taomga yetishganidan xursand boʻladi. Bunday xursandlik, albatta, faqat roʻza tutgan kishigagina nasib etadi. Oxiratda esa Alloh ila muloqot boʻlganda tutgan roʻzasi uchun jannatga kiritilganidan xursand boʻladi”.

Iftorlikning yana bir fazilati — bu paytda duolarning ijobat boʻlishi. Ibn Moja Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Uch kishi bor, ularning duolari qaytarilmaydi: odil rahbar, roʻzador iftor qilgunicha va mazlumning duosi”, deganlar. Boshqa hadisii muborakda esa “Roʻzador uchun iftorlik vaqtida rad qilinmaydigan duo bor”, deb marhamat qilganlar.

Bugun yurtimizda necha minglab insonlar iftorliklarda xayrli duoda boʻlmoqdalar. Insha Alloh, ularning duolari qabul boʻladi.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki, oʻz navbatida, saxovatpesha kishilarimiz iftorlik dasturxonlarini isrofgarchiliksiz, ixcham oʻtkazishi ham dinimiz talabidandir. Ortiqcha hashamat-u dabdabaga berilish savobli amallar ajr-u mukofotlariga putur yetkazishi mumkin. Shuning uchun saxiy insonlar iftorliklarda ortiqcha dabdabaga yoʻl qoʻymay muhtoj oilalarga hadyalar ulashish orqali koʻplab oilalarga quvonch olib kirishi mumkin. Bu oyda har birimiz mana shu katta savobli ish payidan boʻlmogʻimiz dardkor.

Bugun osmonimiz musaffo, yurtimiz tinch, Alloh taolo buyurgan ibodatlarini emin-erkin ado etishimiz uchun barcha shart-sharoit muhayyo va mujassam. Ularning qadriga yetaylik. Zero, barcha neʼmatlarning onasi boʻlmish — tinchlikni asrab-avaylash, ulugʻ neʼmatning shukrini ado etish va Alloh taolodan uning bardavomligini soʻrab duo qilish har bir bandaning zimmasidagi vojib amal hisoblanadi.

Tinchlik bor joyda qut-baraka boʻladi. Yurtning ravnaqi va rivoji ham unga bogʻliq. U shunday ulugʻ neʼmatki, barcha neʼmatning, hatto ibodatlarining ham halovati unga bogʻlangandir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kim manzili tinch, tani salomat, bir kecha-kunduzlik ozuqasi bor holda tong ottirsa, goʻyo unga butun dunyo

toʻlaligicha berilibdi”, deganlar (Imom Termiziy rivoyati).

Diyorimiz musulmonlari har yili Ramazon roʻzasini tinchlik-osoyshtalik, bagʻributunlik ila ado etmoqda. Darhaqiqat, bu oyda imon-eʼtiqod bilan qilinadigan duolar mustajob boʻladi. Chunki muborak oyda Alloh taolo bandalariga osmon eshiklarini ochib, har bir duo qilguvchining duosini qabul qiladi.

Qayd etganimizdek, ayni duolar shaksiz mustajob boʻladigan pallalardagi fayzli marosimda iftorlik qilish uchun jam boʻlgan insoniy otaxon-onaxonlar, duogoʻy moʻysafidlar bilan birga Alloh taolaga iltijolar qildilar. Yaratgan Alloh taolodan aziz xalqimizga ushbu qutlugʻ oyda mustahkam sogʻliq, bitmas-tuganmas kuch-quvvat, oilaviy baxt-saodat va mehnat faoliyatlarida ulkan zafarlar yor boʻlishini soʻradilar.

Parvardigori olam yurtimiz tinchligini yanada mustahkam, xalqimiz hayotini bundan-da farovon, muborak Ramazonida davom etajak xayrli ishlarni yil boʻyi bardavom qilsin. Niyati pok, maqsadlari ulugʻ xalqimizning duo-yu iltijolari roʻyobga chiqsin.

Homidjon ISHMATBEKOV,
Oʻzbekiston musulmonlari idorasi raisining birinchi oʻrinbosari.

REKLAMA

Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti

2023/2024 oʻquv yilida bakalavriat taʼlim yoʻnalishlari va magistratura mutaxassisliklari boʻyicha bitiruvchilarni hamkorlik shartnomalari hamda buyurtmalar asosida ish joylariga taqsimlashga kirishganini maʼlum qiladi.

2023/2024 oʻquv yilida Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat institutini bitirayotgan yosh mutaxassislar toʻgʻrisida maʼlumot

№	Taʼlim yoʻnalishlari nomi	Taʼlim yoʻnalishlari shifri	Bitiruvchilarning umumiy soni	Shu jumladan, viloyatlar boʻyicha																										Qaragʻilgʻan Respublikasi				
				Jami grant	Jami toʻlov-shartnoma	Toshkent shahri		Toshkent viloyati		Namangan viloyati		Fargʻona viloyati		Andijon viloyati		Jizzax viloyati		Samarqand viloyati		Buxoro viloyati		Navoiy viloyati		Sirdaryo viloyati		Surondaryo viloyati		Qashqadaryo viloyati			Xorazm viloyati			
						g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh		g	sh	g	sh
BAKALAVRIAT																																		
TEATR SANʼATI FAKULTETI																																		
1	Aktyorlik sanʼati (dramatik teatr va kino aktyorligi sanʼati)	5150300	65	9	56	1	4	3	9		1		2	1	7		4		9	1	7		3				3	1	6		1	2		
2	Aktyorlik sanʼati (musiqali teatr aktyorligi sanʼati)	5150300	37	1	36	1	5		3		3		4		4				3		1		1		2		3		6			1		
3	Aktyorlik sanʼati (qoʻgʻirchoq teatri aktyorligi sanʼati)	5150300	37	5	32		10	2	2		2		4		3						3					1	1	1	2	5		1		
4	Aktyorlik sanʼati (estrada aktyorligi sanʼati)	5150300	30	3	27		8	1	1		4	1				1		1		3	1	2		2		2			3					
5	Rejissyorlik (dramatik teatr rejissyorligi)	5150400	13	1	12		1		1				2					1		2		3			1				2					
6	Grim sanʼati	5152000	21	2	19	1	9		6									1								1			1	1		1		
Teatr sanʼati fakulteti boʻyicha :			203	21	182	3	37	6	22		10	1	12	1	15		7		17	2	16		6	1	6	1	7	4	23		3	2	1	
KINO, TELEVIDENIYE VA RADIO SANʼATI FAKULTETI																																		
1	Professional taʼlim 5111000 — Xalq ijodiyoti (eholigʻu ijrochiligi)	5111000	18	2	16		4		4				1						2							1		2	2	2				
2	Professional taʼlim 5111000 — Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi)	5111000	13	2	11		4	2	2		2															2		1						
3	Sanʼatshunoslik (sahna va ekran sanʼati dramaturgiyasi)	5150200	15	1	14		2		6				1							1		1			2	1							1	
4	Sanʼatshunoslik (kino sanʼati tanqidi va tahlili)	5150200	20	2	18	1	6	1	4		1		1							1				1		1		2		2				
5	Rejissyorlik (kino va televideniye rejissyorligi)	5150400	26	2	24		6	1	5			1	1						2		1		2		2				2		3			
6	Texnolog sanʼat (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi)	5151400	19	3	16	1	2		2									2	1	2		3		2		1		1		1		1		
7	Kino-teleoperatorlik	5151500	20	2	18	2	7		4		2									3											1		1	
8	Sanʼatda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash	5151800	22	3	19		8		4		1	2								3		1				1				2				
Kino, televideniye va radio sanʼati fakulteti boʻyicha :			153	17	136	4	39	4	31		6	3	4					2	1	12		7		5		10	1	6	2	9		5		2
XALQ IJODIYOTI FAKULTETI																																		
1	Xalq ijodiyoti (ashula va raqs)	5151600	72	10	62			2	3	7		6	3	9		3		6		6		3		2	1	2	1	5	1	11	1			
2	Xalq ijodiyoti (folklor va etnografiya)	5151600	27		27			2		5						1		1		2		2				1		5		6		1	1	
3	Madaniyat va sanʼat muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish	5151700	76	10	66	2	12			14		1	3	3		1	1	6		7	1	2	1	6		4		2		3		5	1	
4	Sanʼat sohasida produserlik	5152100	18	1	17		1		5		1		1					1	1	2				1		3				1		1		
Xalq ijodiyoti fakulteti boʻyicha :			193	21	172	2	17	3	31		8	6	13		5	2	14		17	1	7	1	9	1	10	1	12	1	21	1	7		2	
KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATI FAKULTETI																																		
1	Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)	5350600	81	7	74	1	12	1	13		1	1	3		3		11	1	4	1	5	1	3		3		3		8		3	1	2	
Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti boʻyicha :			81	7	74	1	12	1	13		1	1	3		3		11	1	4	1	5	1	3		3		3		8		3	1	2	
Institut boʻyicha jami bakalavr bitiruvchilari soni :			630	66	564	10	105	14	97		25	11	32	1	23	2	34	2	50	4	35	2	23	2	29	3	28	7	61	1	18	4	7	
MAGISTRATURA BOʻLIMI																																		
1	Aktyorlik sanʼati (estrada aktyorligi sanʼati)	70211001	1		1				1																									
2	Rejissyorlik (kino va televideniye rejissyorligi)	70211101	2	1	1	1								1																				
3	Teatr sanʼati	70211201	2	1	1															1													1	
4	Xalq ijodiyoti (folklor va etnografiya)	70211901	1	1										1																				
5	Xalq ijodiyoti (eholigʻu ijrochiligi)	70211901	1	1																		1												
6	Madaniyat va sanʼat sohasi menejmenti	70212001	4	2	2		1				1																		1	1				
7	Madaniyatshunoslik	70212002	1	1																										1				
8	Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)	70320401	2	2										1																1				
Jami magistratura boʻyicha bitiruvchilari soni :			14	9	5	1	1		1	1			2	1						1	1								1	3			1	
Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti boʻyicha jami bitiruvchilar soni:			644	75	569	11	106	14	98	1	25	13	33	1	23	2	34	2	51	5	35	2	23	2	29	3	29	10	61	1	18	4	8	



OQKO'NGIL VA BUNYODKOR XALQIMIZNING QALB KO'ZGUSI

Ayni kunlarda xalqimizga quvunchli onlarni bag'ishlagan Navro'zi olam shukhi mamlakatimiz bo'ylab tantanali nishonlandi. Bayram sabab keng maydonlarda el-yurtimiz sayil-tomoshalar o'tkazib, ayyom shod-u xurramlik bilan kutib olindi. Ayniqsa, uning sururi barcha mahallada yanada go'zallik va nafosati bilan qalblarga yetib bordi.

Mart oyi bayram-u shodliklarga, xursandchiliklarga to'la oy, desak, ayni haqiqat. Bir necha yildan buyon mamlakatimizda 22-mart Mahalla tizimi xodimlari kuni sifatida nishonlanib kelinayotgani ham fikrimiz tasdig'idir.

Davlatimiz rahbari Navro'z umumxalq bayramiga

bag'ishlangan tantanali marosimdagı nutqida bu haqda alohida to'xtalib, Navro'zning o'lmas ruhi, ayniqsa, mahallalarimiz hayotida yaqqol namoyon bo'layotgani, mahallani qo'llab-quvvatlash, uni yanada rivojlantirish doimo e'tibor markazida bo'lishini ta'kidladi. Chunki mahalla — bu

mehr va ahillik qo'rg'oni. Mahalla — oqko'ngil, bunyodkor xalqimiz qalbining ko'zglasidir.

Mahallalar faollari bayramlar arafasida bugungi islohotlar va o'z hududlarida amalga oshirilayotgan ishlar haqida fikr-mulohazalarini bayon qilishdi.

YANGI MARRALARGA QANOT

Oljas ISAYEV,
“Do'stlik” ordeni sohibi.
Navoiy viloyati:

— Men ko'p yillardan buyon Konimex tumanidagi “Uchtepa” ovul fuqarolar yig'inida ishlayman. Yaqin-yaqinlarda ham mahallaga hamma topshiriq berar, lekin o'sha topshiriqlarning o'ndan birini ham bajarish uchun imkoniyatimiz yo'q edi.

Shuning barobarida viloyat markazidan qariyb uch yuz kilometr olisdagi ovulimiz aholisi tibbiyot, naqd pul, suyuqlariga gaz kabi o'nlab hayotiy muammolardan qiyalib, masala ko'tarib kelar, ularning esa aksariyatini hal etishga imkoniyatimiz yetmasdi.

Bugun ushbu muammolar haqida gapirsa, ko'pchilik yoshlar ishonmaydi. Sababi ular “El aziz, inson aziz” degan g'oya ustuvor tutilgan davrda o'sib-ulg'aymoqda. Xayriyatki, xalqni yillar davomida qiyab kelgan muammolarni bartaraf etishning yangicha tizimlari yaratilib, har birining egasi belgilanishi natijasida, u kunlar ham qo'rqinchilik tushday unutilmoqda.

Bugun mahalla xalq dardini, muammosini eshitadigan, ularni joyida o'rganib hal qiladigan idoraga, kuchga aylanib bormoqda, desam, so'zim erish tuyulmaydi. “Mahalla yettligi”, “tashabbusli byudjet”, “hokim yordamchisi” kabi institutlarning joriy etilishi aholini tashvishga solgan muammolarning



yuqorida emas, quyida o'z yechimini topishiga zamin yaratadi. Va ne tongki, o'z bayramimizga ham ega bo'ldik. Ushbu bayram arafasida mamlakatimiz Prezidenti Farmoni asosida Vatanimizning yuksak mukofoti bilan taqdirlanganimni mahallaning o'zni va nufuzini yuksaltirib kelayotgan olis ovullardagi barcha mahalla tizimi xodimlari mehnatining e'tirofi deb hisoblasak, mubolag'a bo'l-maydi. Umuman, ushbu e'tibor o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash, ko'p asrlik an'analarimizni asrab-avaylash, ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash yo'lidagi faoliyatimizda yangi-yangi marralar sari kuch bag'ishlamoqda.

HAR KUNIMIZ
EZGULIKLARGA YO'G'ARILSIN

Tabassumxon ISROILOVA,
Andijon shahridagi “Barkamol” MFY raisi,
“Sog'lom turmush” medali sohibasi:

— Vatan mahalladan boshlanadi. Biz yashayotgan hududning xususiyati mamlakatimiz qiyofasini shakllantiradi. Shu bois ham respublikamizda mahalla tizimiga bo'lgan e'tiborning ortib borishi jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlaydi.



Men faoliyat olib borayotgan mahalla Andijon shahridagi mahallada joylashgan bo'lib, aholisi zich hudud hisoblanadi. 38 ta ko'p qavatdan iborat uylarda salkam besh ming nafar aholi istiqomat qiladi. Bir paytlar viloyatdagi muammoli hudud sifatida eslanadigan mahallamiz bugungi kunga kelib namunali maskanga aylangan. Bunda faoliyatimizni nuroniylar, mehnat faxriylari, yoshlar bilan o'zaro bamasalabat tashkil etayotganimiz qo'l kelayotir.

Mahallamizda 2022-2023-yillarda birorta jinoyat sodir etilmadi, ajrimlar yuzaga kelmadi. Bunday natijaga erishish uchun, bir necha yildirki, “Qaynonalar”, “O'sh oilalar” maktablari faoliyatini jonlantirib, shu yo'nalishda ko'rik-tanlovlar uyushtirib kelmog'damiz. Har kuni aholi bilan birgalikda “Salomatlik uchun 5 ming qadam” shiori ostida piyoda yurish mashg'uni bajaramiz. Har tomonlama ibrat bo'ladigan oilalar vakillarini respublikamiz bo'ylab sayohatga olib bormog'damiz.

Mahallamiz ko'p qavatli uylardan tashkil topgan bo'lsa-da, 22 gektardan iborat tomorqa yer maydoniga ega. Ayni paytda bir qarich yer ham bo'sh yotmaydi. Har bir ko'p

qavatli uyning oldida shu yerda istiqomat qiluvchi aholining ehtiyoji uchun poliz ekinlari parvarishlanadi. Tomorqadan tashqari qopda kartoshka yetishtirish tajribasini yo'lga qo'yganimiz. Bunda bir qop tuproqqa 4 dona kartoshka ekip, besh kilogramm hosil olyapmiz.

Mahallamizda aholiga xizmat ko'rsatuvchi obyektlar juda ko'p. Bundan tashqari, shifoxona, maktab, bog'cha, bank kabi o'nlab muassasa va tashkilotlar mavjud. Shu bois bizda ishsizlik kabi muammoning yuzaga kelishi mumkin emas. Biroq bu, ushbu yo'nalishga befarq qarasa ko'laveradi, degani emas, albatta. Ayni chog'da aholi orasida tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratyapmiz. Shu tariqa o'tgan yili o'ndan ziyod fuqarolarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali ishbilarmonlari safiga qo'shдик. Bu esa ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishiga sabab bo'ldi.

Aslida ham, har bir kunimiz ezuq amallardan iborat bo'lishi kerak. Shunda o'zimiz ham yaxshi natijalardan quvonib yashaymiz. Davlatimiz rahbarining tegishli Farmoniga binoan Mahalla tizimi xodimlari kuni arafasida “Sog'lom turmush” medali bilan taqdirlanganim bunga yorqin misol. Bu natijaga esa mahallamiz ahlining ahilligi orqali erishdik. Demak, bu mahallamizga berilgan bahodir.

KELGUSI FAOLIYATIM UCHUN KATTA RAG'BAT

Muzaffarjon RAYIMJONOV,
Marg'ilon shahridagi “O'rda tagi” MFY raisi,
“Shuhrat” medali sohibi:

— Navro'z umumxalq bayrami mamlakatimizning barcha hududida yuqori saviyada o'tkazildi va ayni paytda bayram shukhi dillardan-dillarga ko'chmoqda. Mahallamizda ham ushbu ayyom har qachongidan-da zo'r o'tkazildi, desak, xato qilmayman. Sababi Navro'zi olam bilan birga, Mahalla tizimi xodimlari kunini ham shod-u xurramlikda nishonladik.

Bundan ikki yil avval o'zim tug'ilib o'sgan “O'rda tagi” mahalla fuqarolar yig'iniga rais bo'lib saylangach, dastlab ishlash uchun munosib sharoit yaratish kerakligini tushundim. Tadbirkor sifatida keyingi yillarda imkoniyatlardan unumli foydalanib, 200 ta ish o'zni yaratishga muvaffaq bo'ldim. Shu sababli, o'z tadbirkorligimdan 650 million so'm homiylik mablag'i ajratib, mahalla idorasiga zamonaviy bino qurilishiga bosh-qosh bo'ldim. Hozir “mahalla yettligi” uchun barcha qulaylik muhayyo.

Shuningdek, o'tgan yili mahallada otalar choyxonasi

qurilib, foydalanishga topshirildi. Yoshlar sport bilan shug'ullanishi uchun tennis maydoni bunyod etildi.

Mahallamiz shahar markazida joylashgan. Hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish mahalla drayveri sifatida belgilangan bo'lib, 525 ta oila tadbirkorlikning biror yumushi bilan band. Mahalladoshlarimizning 150 ga yaqini xususiy va kichik biznes subyekti vakili, 60 dan ortig'i xizmat ko'rsatish, 45 nafar hunarmandchilik sohasida samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Bu yil imtiyozli kreditlar evaziga hunarmandchilik va



tikuvchilik sexlari faoliyatini yo'lga qo'yib, 100 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratishni maqsad qilganmiz. O'z navbatida, foydalanilmay turgan eski suv havzasi o'rinda bolalar sport maydonchasi barpo etish rejalashtirilgan.

Asosiy, yaqin istiqbolida “O'rda tagi” MFYni shahardagi eng namunali mahallaga aylantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab olganmiz. Buning uchun, birinchi navbatda, mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirishimiz zarur. Shu sababli, “mahalla yettligi” har bir oila kesimida ish tashkil etib, ma'naviy muhit barqarorligiga

erishish harakatida. MFY huzurida tuzilgan komissiyalarining ro'yxatidagina mavjud bo'lishi uchun emas, amalda ishlashga erishilyapti. Qisqasi, xalqimizning “Otang mahalla — onang mahalla” degan hikmatli iborasi bizda to'liq ishlaydi.

Tadbirkor sifatida o'z biznesining rivojini o'ylab yashash boshqa, el-u yurt manfaati yo'lida fidoyilik ko'rsatish boshqa, ya'ni juda ham rahmatbaxsh ekan. Nuroniylarimiz yaxshi ishlarimizni e'tirof etib, duo qilishganda yanada quvonamiz. Davlatimizning e'tibori esa g'ayratimizga g'ayrat, shijoatimizga shijoat qo'shayotir.

Prezidentimiz Farmoniga ko'ra Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan “Shuhrat” medaliga loyiq ko'rilganimni kamtarona mehnatimga yuksak e'tirof sifatida qabul qildim. Bunday e'tibor kelgusi faoliyatim uchun ham katta rag'batdir.

BUGUN MAHALLADA ISH HAM, NATIJA HAM BOR

Hamza XUDOYBERDIYEV,
Qarshi tumanidagi “Lagandi” MFY raisi, “Shuhrat” medali sohibi:

— Bunday 11 yil muqaddam, ya'ni Qarshi tumanidagi “Lagandi” mahalla fuqarolar yig'inı raisi vazifasida ilk faoliyat boshlagan kezlarimda bu yerda elektr energiyasi, ichimlik suvi, yo'l, bandlik va boshqa sohalarida muammolar juda ko'p edi. Ularni hal qilishga bizning vakolatimiz ham, imkoniyatimiz ham yetmasdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan mahallaning jamiyatdagi o'zni va rolini kuchaytirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mahallaning vakolati ham, imkoniyati ham, xalq orasidagi obro'-e'tibori ham oshib bormoqda. Endilikda mahalla faollari astoydil ishlasa, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsa, hududdagi har qanday muammoni hal etishi mumkinligi isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylanadi.

O'z faoliyatim misolida aytadigan bo'lsak, so'nggi uch yil ichida turli dasturlar orqali mahallamizda yangi 120 o'rinli davlat maktabgacha ta'lim muassasasi qurilib, foydalanishga topshirildi. Qishloq vrachlik punkti kapital ta'mirlanib, bu yerda sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish uchun barcha shart-sharoit yaratildi. Xonadonlar to'liq markazlashgan

ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Hududdagi 4 ta transformator, 100 ta simyog'och, havo kabellari yangilandi. Natijada elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolar qolmadi.

Bundan tashqari, mahallamiz ahli birgalikda harakat qilib, ikki marotaba “Tashabbusli byudjet” loyihasida g'olib bo'ldik. Birida mahallamiz hududidagi qabristonning atrofini o'rab, obodonlashtirish uchun moliyaviy imkoniyatga ega chiqqan bo'lsak, ikkinchisida 15 kilometr yo'llarga asfalt qoplama yotqizishga erishdik.

Mahallamizda tadbirkorlikning barcha turi rivojlanib bormoqda. Bu esa hududda xizmat ko'rsatish sifatining oshishi, yangi-yangi ish o'rinlari yaratilishiga zamin bo'layotir.

Umuman aytganda, bugun mahallada



ish qizg'in va eng asosiysi, qilyotgan ishlarimizda samara bor. Va bu ishlarimizning natijasini mahallamizning obodligi, farovonligida ko'rib, bilib turibmiz. Albatta, bunday sharoitda kishining yanada ishlagisi, yangi-yangi rejalarni amalga oshirgisi kelayotir. Hozir “mahalla yettligi” birlashib, oldimizga yana katta rejalarni belgilab olib, mahallamiz farovonligi yo'lida harakat qilyapmiz.

Davlatimiz rahbarining Farmoniga asosan “Shuhrat” medali bilan taqdirlanishim nafaqat meni, balki fuqarolar yig'inı jamoasini ham birday xursand qildi. Bu mukofot bizga yanada kuch, shijoat bag'ishladi.

MA'RIFAT VA ZIYO MASKANI

Nazira MAMAJONOVA,
Yangi Namangan tumanidagi “Bunyodkor” MFY kutubxonachisi:

— Tuman markazidan o'n ikki chaqirim masofada joylashgan mahallamiz tobora obod bo'lib bormoqda. Bundan uch yil avval bu yerda fuqarolar yig'inining yangi zamonaviy binosi ishga tushirildi. Unda idoradan tashqari IT markazi va kasbga o'qitishga mo'ljallangan monomarkaz, shuningdek, uch ming kitob fondiga ega kutubxona ham o'rin olgan.

Ziyo-xona ochilganidan so'ng mutolaaga havasmand insonlarning ko'pchiligi bo'sh vaqtini shu yerda o'tkazadigan bo'lib qoldi. Ularning yoshi va qiziqishlariga mos adabiyotlar hamisha topilgani uchun keksa otaxon hamda onaxonalarimiz ham nabiralari bilan birga kitob o'qishga kelishadi.



Inson mehnat qilaversa, har qanday manzil obod bo'lib boraveradi. Bizning mahallamiz yildan-yilga ko'rkamlashmoqda. Birgina o'tgan yili 6 km.ga yaqin ichki yo'llar asfalt qilindi. 585 ta xonadonga toza ichimlik suvi olib kirilgani

Hozirgi kunda doimiy ro'yxatdagi a'zolarimiz soni 350 nafardan oshib ketdi. Ijtimoiy tarmoq orqali ochgan kutubxonamiz xizmatidan esa 200 dan ortiq mahalladoshlarimiz foydalanmoqda.

Yoshlarni mutolaaga yanada kengroq jalb etish maqsadida yaqinda tanlov e'lon qilidik. Uning yagona sharti eng ko'p kitob

OBOD YURTGA BAYRAMLAR YARASHADI

Muhammadazizbek XUDOYBERDIYEV,
Qo'rg'ontepa tumanidagi “Obod turmush” MFY raisi:

— Obod yurtga bayramlar yarashadi. Shu ma'noda, bugun barcha manzillarda, xususan, bizning mahallamizda ham bayram shukhi kezib yuribdi. Davlatimiz rahbari mamlakatimizda nishonlanadigan Mahalla tizimi xodimlari kuni bilan yurtdoshlarimizni, jonkuyar va fidoyi mahalla faollarini tabriklab, ularning ishlariga muvaffaqiyat tiladiki, bu ham bizga katta kuch-g'ayrat beradi.

ham muhim voqe'lik bo'ldi. Bu yil bahor faslining o'zida mahalladoshlar ko'magi bilan 5 ming tup manzarali hamda mevali ko'chatlar ekdik. 10 ming tupdan ortiq gullar esa ko'chalimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi.

Bugungi kunda

mahallaning zimmasida juda katta mas'uliyatli vazifalari bor. Yoshlar tarbiyasi, oilalar mustahkamligi, bandlik, ijtimoiy himoya va boshqalar. Bu yo'nalishdagi ishlar har soniya bo'lsa-da, mas'uliyatsizlikka, loqaydlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu



o'qish edi. G'olib chiqqan mukofot uchun zamonaviy planshet oladi. Ayni kunda da'vogarlar soni yuzdan oshib ketdi.

Bilasizmi, mahalla ma'naviyati va ma'rifat tarqatuvchi maskanga aylangani, bu — bizning yutug'imiz.

borada ayrim muammoli masalalar ham yo'q emas, albatta.

Prezidentimiz mahalladek, muammolar yechimida fuqarolik jamiyatining noyob namunasi bo'lgan mahalla yetakchi o'rin tutadi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qo'g'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktib olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;

e'lonlar 71-259-74-55.



“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 02.35 Topshirildi — 03.05

1 2 3 4 5 6

MANZILIMIZ:

100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Nabatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.